

**DARS MASHG'ULOTLARIDA MUNOZARA VA AQLIY HUJUM
USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.**

Achilova Zilola Bo'ronovna

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyi
matematika fani o'qituvchisi*

Muqumova Sobira Soliyevna

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti akademik litseyi
matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'qitish metodlaridan bo'lgan munozara va suhbat usullarining qo'llanilishi va samaradorligi haqida qisqacha bayon qilingan.*

Kalit so'zlar. *Pedagogik texnologiyalar, munozara usuli, aqliy hujum usuli*

Annotation. *This article summarizes the applications and effectiveness of discussion and conversation methods from teaching methods.*

Keywords. *Pedagogical technologies, method of discussion, method of mental attack*

Har bir darsda ta'lim maqsadining aniq o'rnatilishi va o'qitish texnologiyasini loyihalash muhim shart hisoblanadi. Ko'p bosqichli ta'lim tizimining har bir bosqichi uchun pedagogik texnologiyaning o'rnini asoslash va zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Akademik V.P. Bospalkoning pedagogik texnologiyaga bergan ta'rifi: "Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir".

Ijtimoiy iqtisodiy sohada ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar asosida pedagogik texnologiyalarni muntazam ravishda yangilab borish lozim. Istiqbolli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash, amaliyotga joriy etish, samarasini aniqlash va ommalashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Viloyat va tumanlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilar ish uslublarini muntazam o'rganib borish va ular tomonidan yaratilgan metodikalarni yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish muhim. Bular

- *O'qituvchi faoliyatini pedagogik texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish.*
- *Pedagogik jarayonni loyihalash ta'lim standartlarini tahlilidan boshlanishi.*
- *Ta'limning maqsadini aniq belgilash.*
- *Ta'limning umumiy maqsadi.*
- *Ta'limning umumiy pedagogik maqsadi har bir o'quv predmetining maqsadini alohida alohida konkretlashtirish o'quv materiallari tarkibida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv elementlarini o'zlashtirish maqsadlarini belgilash.*
- *Ta'lim vositalari va ularni optimal tanlash.*
- *Ta'limning moddiy va moddiylashgan vositalari.*
- *Ta'lim natijasi.*
- *O'quvchi faoliyatining natijasini ta'lim jarayonida o'quvchi oldiga qo'yilgan maqsadlarga taqqoslash.*
- *Didaktik jarayon: belgilangan vaqt ichida ta'lim-tarbiya maqsadiga erishish uchun o'quv elementlari mazmunini o'quvchilarga uzatish yo'llarini aniqlashdan iborat.*
- *Didaktik jarayonning zamonaviy talqini, uning uch komponentdan iboratligi.*
- *Motivatsiya, o'quvchining o'quv biluv faoliyati, o'quvchi faoliyatining pedagog tomonidan boshqarilishi.*
- *Didaktik tamoyillar, uzluksizlik, tadrijiylik, tushunarlilik, ilmiylik, ko'rsatmalilik.*

O'qitish metodikasi va pedagogik texnologiyani quyidagilar belgilaydi:

- *Pedagogik texnologiyaning loyihasi ham, uni amaliyotga joriy etuvchisi*

ham pedagogning pedagogik tizimdagi o'rne;

- *Pedagog jamiyat buyurtmasiga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadini tashxislanuvchan holda aniq va ravshan belgilashi;*
- *Ajratilgan vaqt ichida bu maqsadga erishishini ta'minlaydigan jarayonni joriy etishni nazarda tutishi;*
- *Pedagogning belgilangan ta'lim maqsadiga to'g'ri keladigan o'quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini saralashda fanning abstraktsiya pag'onalarini va o'zlashtirish darajalariga mosligini inobatga olishi;*
- *O'qituvchining pedagogik tizimining tarkibiy elementi sifatida didaktik jarayonni eng maqbul variantini har bir dars mavzusiga bog'liq holda loyihalashi;*
- *O'qituvchi didaktik jarayonni amalga oshirishda o'qitishning samarali shakllaridan foydalanishi;*
- *O'qituvchi pedagogik tizimning ishtirokchisi bo'lgan o'quvchining ta'lim mazmunini va tarbiya ta'sirini qay darajada egallayotganligini eng maqbul usullar bilan nazorat qilib borish;*
- *Didaktik jarayonni tashkil etishda o'qituvchi o'quv biluv faoliyatining tashkiliy shakllarini ta'lim mazmuniga mos holda tanlashi.*

Pedagog didaktik jarayonni boshqarishi sub'ekti sifatida: boshqarish ob'ekti; sub'ekt va ob'ekt; o'quv faoliyatini boshqarishning siklik shakli kabilardan tarkib topgan.

Pedagogik texnologiyalarning ta'riflari

Pedagogik texnologiya tizimga solingan pedagogik holatlar bo'lib unda belgilangan maqsaddan olinishi zarur bo'lgan natijaning kafolatli bo'lishini ta'minlaydigan ilmiy asoslangan ta'lim tarbiya jarayonidir.

A. S. Jo'raev.

Pedagogik texnologiya – bu, Ta`lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o`zaro ta`sirini inobatga olib o`qitish va bilim o`zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo`llashning tizimli metodidir.

(YUNESKO)

Pedagogik texnologiya – bu o`qituvchi mahoratiga bog`liq bo`lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o`quvchi shaxsini shakllantirish jarayoning loyihasidir.

Akademik V. P. Bespol`ko.

Pedagogik texnologiya bu o`qituvchining ta`lim tarbiya vositalari yordamida o`qituvchilar muayyan sharoitda va ma`lum ketma-ketlikda ta`sir ko`rsatish va aks ta`sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Saidahmedov. N. S.

Ta`lim jarayonini loyihalash ketma-ketligi, ta`limni yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilash, ta`lim natijalarini oldindan qayd etish, o`quv predmetlarini to`liq o`zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta`lim vositalari shart-sharoitlarni tayyorlash, oldindan belgilangan, aniq kafolatlangan natijaga erishish uchun zaruriy tadbirlar tizimini ishlab chiqishdir.

MASHG`ULOTLARDA MUNOZARA USULIDAN FOIDALANISH

Munozara – muhokama, ma`lum muammo bo`yicha erkin fikr almashuvidir.

Munozara usulidan foydalanishda ko`zda tutilgan maqsadlar:

Yangi bilimlarni shakllantirish;

O`quvchilarni u yoki bu muammoni chuqur o`ylab ko`rishiga, tub ma`nosiga yetishga imkon beradi, motivatsiyani ta`minlaydi;

- o'quvchilar dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yetishlariga o'rganadi;

- kommunikativ ko'nikmalar shakllantiriladi, o'quvchilarda o'z fikrida mustahkam turish va uni himoya qilish hissi tarbiyalanadi.

- erkin munozarada, o'qituvchi, faqat uni boshlab beruvchi bo'lib, munozaraga aralashmaydigan hakamdir. Bu yerda, muhokama qilinayotgan jarayonning, muammoning o'ziga urg'u berish kerak va har bir o'quvchini o'z dalillaridan aniq foydalanishlariga rag'batlantirish lozim. Munozarada har bir o'quvchini ishga solmoqchi bo'lsangiz, har xil yo'nalishlar bilan har bir shaxsga ta'sir etishni istasangiz, u holda erkin munozara tashkil etish lozim .

MUNOZARA USULINING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
I. Tayyorlov bosqichi	Munozara mavzuni aniqlaydi, uning maqsad, vazifalarini belgilaydi; Munozara qatnashchilari erishishi kerak bo'lgan natijaga shakl beradi; Munozarani kerakli maromda ushlab turadigan savollar va oraliq xulosalarni tayyorlash, uni o'tkazish tartibini dasturlashtiradi; munozarani	

	qanday va nimadan boshlanishi; o'quvchilarning barchasini munozarada ishtirokini qanday ta'minlanishi; munozarani qanday yakunlash va aniq tugallovchi xulosalarni tuzish lozim.	
II. Munozarag a kirish bosqichi	Mavzuni e'lon qiladi. Tuzilishini, o'z mulohazalarini ma'lum qiladi va o'quvchilarning o'z nuqtai nazarini bayon etishni taklif etadi. Munozaraning boshlanishida qiziqtirish uchun bir nechta tayyorlangan savollarni berish mumkin.	
III. Ishbilar- monlik, bahslashuv bosqichi	Quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilaydi: - belgilangan vaqtda ulgurish; - agar o'quvchilar o'zgacha fikrni bayon qilsalar bunday vaziyatda vositachi bo'lish; - munozaraga undash; - fikrlarni bo'laklash va munozaralarni taksimlash;	O'z nuqtai nazarini bayon etadilar taklif kiritadilar. Muhokama qiladilar. O'z fikrlarini himoya qiladilar.

	-munosabatlarda doim madaniylikni ta`minlash;	
IV. Xulosa bosqichi	Keltirilgan dalillardan eng muhimlarini qisqacha sanab o'tadi va ajratadi. O'xshash fikrlarni ta'kidlaydi. Yechilmagan muammolarni aytib o'quvchining turli nuqtai nazarlarni yoritishga qo'shilgan hissa deb baholaydi.	

MUNOZARA SAMARADORLIGI

Birinchidan, o'quvchilarning tayyorgarligiga, o'z fikrini bildirsa olmasa, keltirayotgan daliliga rakiblarini ishonтира olmasa, munozara chalkash va qarama-qarshi tus oladi. Shuning uchun o'quvchilarda o'z fikrini shakllantirishga, savollarni puxta va ma'noli qilib aniq ifoda etishga. muayyan isbotlar keltirishga erishish lozim.

Ikkinchidan, munozaraga faqat sinfda sog'lom ijtimoiy muhit bo'lgandagina, o'quvchilar bir - birlari bilan do'stona munosabatda bo'lsalargina o'tkazish mumkin.

Uchinchidan, munozara mavzui fikr almashish uchun mos bo'lib, o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lgan taqdirdagina muvofaqiyatli chiqadi.

MASHG'ULOTLARDA AQLIY HUJUM USULIDAN FOYDALANISH

Bu usulni barcha fanlarda samarali qo'llash mumkin. O'qituvchi bir - biri bilan bog'liq bo'lgan mavzularning har biriga doir 15 tadan qisqa va aniq savollar tuzib chiqadi. Mavzular 8 - 10 ta bo'lishi mumkin. Sinf o'quvchilarini 8 —10 ta guruhga ajratib, har biriga savollar yozilgan kartotekalarni tarqatadi. 10 minut o'quvchilar

savollarga tayyorlanish davomida musiqali tanaffus eʼlon qilinadi. Mavzular va guruhlarini birin - ketin muayyan tartibda joylashuvi zaruriy shartdir. Masalan, geografiyadan 1-guruh Respublika geografik oʻrniga tayyorlansa, 2-guruh oʻlkaning oʻrganilish tarixi, 3-guruh - relʼef, 4 - guruh - geologik tuzilishi, 5- foydali qazilmalari, 6- guruh ichki suvlari va daryolari, 7-guruh - iqlimi, 8-guruh oʻlka tuproqlari, 9-guruh oʻsimlik va hayvonot olami, 10-guruh oʻlka tabiatini muhofaza qilish va h.k. Maxsus tayyorgarlik koʻrilgandan soʻng oʻqituvchi har bir guruhdan xohlagan oʻquvchini chaqirib 15 ta savolga javob talab qiladi. Aqliy hujum qisqa muddatda oʻtkazilib yakunlanadi. «Aqliy hujum» usulini qoʻllashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirgan gʻoya va fikrlar muhokama etilmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirgan gʻoya va fikrlar hatto boʻlmagʻur boʻlsayam, hisobga olinadi.
3. Qancha koʻp goya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi.
4. Bildirilgan gʻoya va fikrlarni toʻldirish va amalda kengaytirish mumkin.
5. Gʻoya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi va qatʼiy reglament belgilanadi.

Taʼlimning bu usuli gʻoyalarni topish, (oʻquvchilar birlashgan holda) qiyin muammolarni yechishga harakat qiladilar, uni yechish uchun shaxsiy gʻoyalarni ilgari suradilar. Uning asosiy vazifasi muammoni mustaqil tushunish va yechishga oʻquvchilarni oʻrgatishdir.

AQLIY HUJUM USULINING TEXNOLOGIK XARITASI

Faoliyat bosqichlari	Oʻqituvchi faoliyati	Oʻquvchi faoliyati
----------------------	----------------------	--------------------

I. Tayyorlov bosqichi.	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni, natijalarni, baholash mezonini ishlab chiqadi .	
II. Munozaraga kirish bosqichi	Mavzuning maqsadini, natija va baholash mezonini e`lon qiladi. Miyaga hujum usuli maqsadni amalga oshirish vositasi ekanligini tushuntiradi.	
III. G'oyalarni kiritish bosqichi.	G'oyalarni magnitofon yoki videolentaga, qog'oz varagiga yoki doskaga yozib olishni tashkil qiladi.	Muammoni yechish bo'yicha g'oya va takliflar haqida mulohaza yuritadilar.
IV. Tahlil bosqichi.	Ishlab chiqilgan baholash mezonlaridan kelib chiqib ilgari suralgan g'oyalarni tahlil qilishni tashkil etadi.	Bildirilgan g'oyalarni, takliflarni guruh bo'lib tahlil qiladilar, eng qulay maqsadga muvofiqlarni aniqlaydilar.
V. Yakun yasash, tahlil va baholash bosqichi.	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'ziga baho berishlari mumkin.

Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullarining markazida, o'quvchi shaxsining mustaqil tafakkurlay olishga o'rgatish masalasi turadi. Ko'p yillik qolipga o'rnatilgan, eski tipdagi darslar tizimi o'quvchilarning erkin fikrlashiga to'siq bo'lib, faqatgina o'qituvchining ma'lumot berishiga asoslangan edi.

Noan`anaviy darslar va ta`limning interfaol usullari o`quvchilarning darsga bo`lgan munosabati va ilm olishga bo`lgan havasini oshiruvchi muhim turtki bo`ldi, desak xato bo`lmaydi.

Noan`anaviy darslar va ta`limning interfaol usullarini qo`llashning muhim tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o`quvchida yashirinib turgan qobiliyat va iste`dodlarni ro`yobga chiqaradi hamda ularda o`z imkoniyatlariga ishonch bilan yondashishni tarbiyalaydi. Ko`p pedagogik adabiyotlarda ta`lim samaradorligiga erishishning yuzlab usullari haqida ilmiy tavsiyalar keltirilgan. Ammo, ularning kamchiligi shundaki, bu usullarni qo`llash asosan o`qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Biz bayon etayotgan noan`anaviy darslar va ta`limning interfaol usullarda markaziy o`rinda o`quvchi shaxsi qo`yilgan. Bunda o`qituvchi tashkilotchi va mazmunni to`ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. YU.K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida o`qitish metodlari. Toshkent. «O`zbekiston». 1990 y.
2. O.Mo`minov. Zamonaviy geofafiya darsiga qo`yiladigan talablar. Toshkent. «O`zbekiston» -1990 y.
3. V.F.Shatalov. Hamma va har bir kishini o`qitamiz. Toshkent «O`zbekiston». 1987y.
4. L.I.Bajenova. Pedagogik izlanish - Toshkent «O`qituvchi» -1990 y.
5. Viloyat o`qituvchilarning ilgor pedagogik tajribalari. 1990-2000y